

Toshkent viloyati statistika boshqarmasi Axborot xizmati

NIZOM

I.Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Toshkent viloyati statistika boshqarmasi Axborot xizmatining (keyingi o‘rinlarda Axborot xizmati deb ataladi) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Axborot xizmati Toshkent viloyati statistika boshqarmasi (keyingi o‘rinlarda Toshkent viloyati statistika boshqarmasi deb ataladi) markaziy apparatining mustaqil tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi hamda bevosita uning rahbariga bo‘ysunadi.

3. Axborot xizmati o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga, O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistikasi to‘g‘risida”gi qonuni va O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qarorlari jumladan, “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta‘minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 4366-son qaroriga, mazkur Nizomga, shuningdek, boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

4. Axborot xizmati o‘z faoliyatini Toshkent viloyati statistika boshqarmasi tarkibiy bo‘linmalari, Toshkent viloyatiningi tumanlar va shahar statistika bo‘limlari (keyingi o‘rinlarda hududiy statistika organlari deb ataladi) shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Administratsiyasi huzuridagi Toshkent viloyati axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (keyingi o‘rinlarda – Agentlik) bilan o‘zaro yaqin hamkorlikda amalga oshiradi.

II.Xizmatning asosiy vazifalari va funksiyalari

5. Quyidagilar xizmatning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Toshkent viloyati statistika boshqarmasi boshlig‘i tomonidan zamonaviy talablarga muvofiq belgilanadigan axborot siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etish;

axborot sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish borasida Axborot xizmati zimmasiga yuklangan vazifalarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Toshkent viloyati axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmatlari bilan samarali va amaliy hamkorlikda ta‘minlash;

Toshkent viloyati statistika boshqarmasi faoliyati haqida ommaviy axborot

vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy veb-saytlari, shuningdek, boshqa axborot resurslari orqali, shu jumladan, matbuot anjumanlari, brifinglar, mediaturklar tashkil etish yoʻli bilan aholiga muntazam, toʻliq va tezkor ravishda axborot taqdim etib borish;

Toshkent viloyati statistika boshqarmasi mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy- iqtisodiy taraqqiyoti jarayonlari haqida axborot berish va yoritish boʻyicha chora- tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish;

Toshkent viloyati statistika boshqarmasining ijobiy imijini shakllantirish va ilgari surish, ijtimoiy soʻrovlar oʻtkazish va boshqa shakllarda jamoatchilik fikrini oʻrganish;

Ommaviy axborot vositalari bilan samarali hamkorlik qilish, axborot xizmatlari bilan doimiy ishlovchi jurnalistlar va blogerlar doirasida tezkor maʼlumotlarni tarqatish, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilishda keng aholi qatlamlarining ishtirokini taʼminlash maqsadida ekspertlar guruhini shakllantirish;

muntazam ravishda ommaviy axborot vositalarida Toshkent viloyati statistika boshqarmasi boshliqlarining chiqishlarini tashkil etish;

axborot makoni monitoringini olib borish va tahlil qilish, tanqidiy va keng muhokama qilinayotgan axborot xurujlariga tezkor munosabat bildirish, ommaviy axborot vositalari va Internet tarmogʻida Toshkent viloyati statistika boshqarmasi faoliyatiga aloqador axborotni tarqatish boʻyicha ishlarni tashkil qilish;

Toshkent viloyati statistika boshqarmasi bilan birgalikda mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari orqali tarqatish uchun xabar, maʼlumot, sharh va boshqa axborot-tahliliy materiallar tayyorlash;

Toshkent viloyati statistika boshqarmasining faoliyati toʻgʻrisida jamoatchilik fikrini, milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarining pozitsiyasini oʻrganish, dolzarb takliflar ishlab chiqish va ular toʻgʻrisida davlat organlari va tashkilotlari rahbariyatiga axborot berib borish;

Toshkent viloyati statistika boshqarmasi faoliyatini xorijiy ommaviy axborot vositalarida sifatli yoritish maqsadida vakolatli vazirliklar va idoralar orqali Oʻzbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalarini, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning Oʻzbekistondagi diplomatik vakolatxonalarini axborot materiallari (bosma mahsulotlar, foto-, audio-, videomateriallar va h.k.) bilan taʼminlash;

Toshkent viloyati statistika boshqarmasining vakolatiga kiruvchi normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari hamda ularning tasdiqlangan matnlarini belgilangan tartibda oʻz rasmiy veb-saytlarida joylashtirish;

Toshkent viloyati statistika boshqarmasining faoliyatiga aloqador matnli, foto-audio- va videomateriallardan iborat maʼlumotlar bazasini shakllantirish va yangilab borish.

6. Axborot xizmatiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi funksiyalarni bajaradi:

OAVda, shu jumladan, Internet tarmog'ida axborotlarni e'lon qiladi shuningdek, agentlik rasmiy veb-saytida ma'lumotlarni yangilab borishni ta'minlaydi;

OAV va jurnalistlar, blogerlar, statistik ma'lumotlar foydalanuvchilarining so'rovi asosida ularga og'zaki va yozma shaklda (shu jumladan, elektron hujjat shaklida) axborot taqdim etadi;

Toshkent viloyati statistika boshqarmasi veb-saytining zamonaviy darajada yuritilishi, shuningdek, boshqarmaning Internet tarmog'idagi: "Facebook", "Telegram" va "Youtube" rasmiy sahifalari faolligini ta'minlaydi;

Toshkent viloyati statistika boshqarmasi tomonidan tashkil etiladigan rasmiy tadbirlardan teledasturlar, roliklar va lavhalar tayyorlashda va ularni montaj qilishda ishtirok etadi hamda ushbu materiallarni belgilangan tartibda saqlash uchun ularning arxivlashtirilishini ta'minlaydi;

Axborot xizmati Toshkent viloyati statistika boshqarmasi Jamoatchilik kengashining ishchi organi hisoblanib, kengashning tashkiliy-uslubiy va axborot jihatidan ta'minlaydi. Axborot xizmati rahbari yoki malakali xodimi Jamoatchilik kengashiga kotiblik qiladi.

III.Xizmatning huquqlari va majburiyatlari

7. Axborot xizmati o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Axborot xizmatining vazifalari va funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan axborotni Toshkent viloyati statistika boshqarmasi bo'linmalaridan belgilangan tartibda so'rab olish;

Toshkent viloyati statistika boshqarmasining yig'ilishlari, majlislari va boshqa tadbirlarida qatnashish;

qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun Toshkent viloyati statistika boshqarmasining boshlig'i bilan kelishgan holda idoraning boshqa bo'linmalari xodimlarini jalb etish, shuningdek, boshqa tashkilotlarning mutaxassisleri va malakali ekspertlarini, shu jumladan, shartnoma asosida jalb etish;

rahbariyatning topshirig'iga ko'ra, davlat organlarida, viloyat bo'yicha ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlarda Axborot xizmati vakolatiga tegishli masalalar bo'yicha Toshkent viloyati statistika boshqarmasi nomidan vakillik qilish;

Toshkent viloyati statistika boshqarmasining axborot siyosatini takomillashtirishga doir takliflarni, Axborot xizmati faoliyati masalalari bo'yicha normativ hujjatlar loyihalarini rahbariyatning ko'rib chiqishi uchun kiritish.

8. Axborot xizmati:

o'ziga yuklangan vazifalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishi;

Toshkent viloyati statistika boshqarmasining faoliyatining milliy va xorijiy OAVda xolisona, sifatli va tezkor yoritilishini ta'minlash uchun javob beradi.

IV. Xizmat faoliyatini tashkil etish

9. Xizmat xodimlarining soni, ular amalga oshiradigan vazifalarning murakkabligi va hajmiga ko'ra, Toshkent viloyati statistika boshqarmasi boshlig'i tomonidan, xodimlarning tasdiqlangan umumiy soni doirasida belgilanadi.

10. Axborot xizmati faoliyati Toshkent viloyati statistika boshqarmasi boshlig'i tomonidan tasdiqlanadigan ish rejasi asosida amalga oshiriladi.

11. Axborot xizmatiga AOKA xulosasiga ko'ra, Toshkent viloyati statistika boshqarmasi boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan rahbar boshchilik qiladi.

12. Axborot xizmati rahbari bevosita Toshkent viloyati statistika boshqarmasining boshlig'iga bo'ysunadi va bir vaqtning o'zida boshliqning matbuot kotibi, axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi hisoblanadi.

13. Axborot xizmati rahbari:

Axborot xizmati lavozimiga ustuvor ravishda ta'limning jurnalistika yo'nalishidagi mutaxassisliklari bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan xodim tayinlanishi lozim;

Axborot xizmati faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda unga yuklangan vazifa va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

Axborot xizmati faoliyatini tashkil etadi, rejalashtiradi va nazorat qiladi, Toshkent viloyati statistika boshqarmasi hamda hududiy bo'linmalari bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

Axborot xizmatida kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishni ta'minlaydi, xodimlar o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

Axborot xizmati xodimlarining malakasini va kasbiy saviyasini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, xorijiy xizmat safarlariga yuborish bo'yicha taklif beradi.

14. Axborot xizmati xodimlari Axborot xizmati rahbari – direktorning matbuot kotibi, axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisining taqdimnomasiga ko'ra, belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

15. Axborot xizmati faoliyatini axborot, huquqiy, moddiy-texnik va transport bilan ta'minlash, shuningdek, uning xodimlariga ijtimoiy-maishiy xizmat ko'rsatish Toshkent viloyati statistika boshqarmasi boshqa bo'linmalari xodimlariga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 27-iyunda qabul qilingan "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4366-son qarorida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.